

**ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA ONA VATAN MADHI**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat*

*pedagogika universiteti talabasi*

***Sadullayeva Maftunabonu Zavkiddinovna***

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Milliy ug'onish davrida yashab ijod qilgan buyuk adib, yozuchi, shoir va mahoratli pedagog – Abdulla Avloniyning o'chmas merosi – Vatanni madh etgan asarlari to 'g'risida so 'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Vatan, Milliy uyg'onish davri, Vatanni suymak, Vatan xayoli.

*Vatanni sevmoq – iymondandir.*

(Payg'ambarimiz Muhammad S.A.V)

Inson Vatanida tug'iladi, ulg'ayadi, ilm oladi, voyaga yetadi, o'z hayotini quradi va albatta, agarda chinakam baxtli va omadli inson bo'lsa, shu maskan tuprog'iga qo'yiladi. Ajab emaskim, inson bolasi aynan shular tufayli o'z Vatanini sevsə, uni ardoqlasa, asrasa... Vatan onaga qiyoslanadi. Ko'plab adabiyotlarda "Ona Vatan" jumlasini ko'p uchratganmiz. Onamiz biz uchun qanchalar muqaddas zot! "Onalar oyog'i ostida Jannat" deyishadi buyuklar. Onalarimiz bizga qimmatli umrini baxshida etganining qarzini uzish uchun umrimiz kamlik qiladi. Ona farzandini dunyoga keltirish uchun nafaqat jismonan, balki ruhan toliqishini hech o'ylab ko'rganmisiz? Onalar oldidagi vazifalarimiz buyuk Islom dinimizda ham ta'kidlab o'tilgan. Shu o'rinda sahobalardan biri Payg'ambarimiz Muhammad S.A.V.ga bergen savoliga olgan javobi tahsinga loyiqidir.

*Kimdir savol berdi: "Aytgil Muhammad,*

*Yolg'iz sen rasulsan butkul olamga.*

*Eng avval yaxshilik qilay, o'zing ayt,*

*Ona-onamgami, yoxud bolamga?"*

*Rasul javob berdi: "Tingla birodar,*

*So 'zimni uch bora qulqqa ilgil.*

*Imkon topa olsang dunyoda agar,*

*Eng avval onangga yaxshilik qilg'il".*

Bas gar shunday ekan, onamiz oldidagi vazifamiz va burchimiz Vatanga bo'lgan muhabbatimiz bilan uyg'unlashmog'I lozim. Vatan tinchlik og'ushida bo'lar ekan, insonning hech bir tashvishi bo'lmaydi. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining taniqli namoyondalaridan biri, buyuk Vatan kuychisi, ilm-ma'rifat arbobi Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek:

*Vatan, Vatan deya jonio tanimdan o'lsa ravon,*

*Banga na g'am qolar, avlodima o'yu Vatanim.*

Abdulla Avloniyning Vatanga, o'z ona yurtiga bo'lgan cheksiz mehri parvonaning yonib turgan shamga nisbatan bo'lgan sevgisiga qiyosdir. Qanchalar yonib kul bo'lmasin, kapalak sham yog'dusidan uzoqlasha olmaganidek, Abdulla Avloniy ham yurtini qoloq bo'lsa-da, ma'rifatdan ortda qolgan bo'lsa-da jonidan ortiq sevdi. Adib xalq kelajagi uchun, ilmi avlod shakllanishi uchun o'z jonini ham ayamagan buyuk insondir. Tahdid-u qistovlarga qaramay, qo'rqtish-u qarshiliklarga e'tibor bermay atrofga ziyo nurini sochgan adibning ochgan maktablari, ushbu o'nlab maktablar uchun yozgan turfa darsliklari o'z davrining so'nmas olovli qalb egalarini yetishtirib chiqqandir.

Abdulla Avloniyning qalamiga mansub bo'lgan "Vatanni suymak" lavhasi boshdan oyoq Vatanni ardoqlash, ona yerni ulug'lash to'g'risidadir. "Vatan, - deydi adib, - Har bir kishining tug'ulub o'skan shahar va mamlakatini shul kishining Vatani derlar. Har kim tug'ulgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar". Avloniy "Vatan" tushunchasini turli ma'nolarda ta'riflaydi: ushbu atama keng ma'noda mamlakat, yurtni anglatsa, tor ma'noda shahar, qishloq mahalla va uyni anglatadi. "Hatto bu Vatan hissi-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon Vatanidan – uyidan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talk bo'lub, har vaqt dilning bir go'shasida o'z Vatanining muhabbati turar". Chindan

ham, biror hayvonni o‘zi tug‘ilib o‘sgan uyidan, o‘z onasi quchog‘idan ayirsak, uni hatto hashamatlar qurshoviga otsak ham o‘zining oddiy, sodda, onasi yashagan uy yoki hatto xarobadagi oddiy hayotida bo‘lganidek ko‘ngli taskin topmaydi, tinchimaydi. “Hammaga ma’lumki, eng muqaddas diniy yerimiz o‘lan Arabistonga bog‘larini, hovlilarini sotub hijrat qilgan hojilarimizning aksari yana o‘z Vatanlariga qaytub kelurlar. Buning sababi, ya’ni bularni tortib kelturgan quvvat o‘z Vatanlarining, tuproqlarining mehr-u muhabbatidur. Rasuli Akram nabiyyi-muhtaram sollallohu alayhi vasallam afandimiz: “Hubbul-vatani minal-imoni” – “Vatanni suymak imondandur”, - demishlar” Darhaqiqat, borgan davlatimiz qanchalar sharoitlarga boy bo‘lmashin, qanchalar jannatmakon bo‘lmashin, mamlakatimizdan ustun bo‘lmashin, Vatanida tug‘ilgan qalb unga talpinaveradi. Inson o‘zi bilib-bilmagan holda o‘z ona yurtini – sajdagohini sog‘inadi. Unga talpinadi. Kecha-kunduz ona Vatani xayolidan ketmaydi. Abdulla Avloniy aynan shularni nazarda tutgandir. Hech shubhasiz, Abdulla Avloniy bosib o‘tgan mashaqqatli hayot yo‘li biz – yoshlarga o‘rnak va namuna bo‘ladir.